

**Fayoza Mannonova,**

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti*

*“Dramatik teatr va kino san’ati”*

*kafedrasi o‘qituvchisi*

## **QASHQADARYO VILOYATI MUSIQALI DRAMA TEATRINING MADANIY RIVOJLANISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI**

**AnnotatsiY.** Ushbu maqola Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrining madaniy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyatiga bag‘ishlangan. Maqolada teatrning tashkil topish tarixi, ijodiy faoliyati va repertuariga hamda uning mahalliy va milliy madaniyatga qo‘shegan hissasiga e’tibor qaratiladi. Teatrning san’at sohasidagi muhim roli, ijtimoiy masalalarni yoritishdagi o‘rni va jamiyatdagi ta’siriga alohida urg‘u beriladi. Shuningdek, maqolada teatrning kelgusi rejalarini va istiqbollari haqida ham so‘z yuritiladi, uning madaniy hayotdagi o‘rni va jamiyatdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri o‘zining ijodiy faoliyati bilan nafaqat mahalliy aholining, balki mamlakatning madaniy muhitiga katta hissa qo‘shemoqda.

**Kalit so‘zlar:** teatr, musiqa, raqs, aktyor, madaniyat, madaniy meros, spektakl, sahna.

**Аннотация.** Данная статья посвящена роли и значению музыкально-драматического театра Каракалпакской области в развитии культуры. Статья посвящена истории театра, творческой деятельности и репертуару, а также его вкладу в местную и национальную культуру. Особый акцент сделан на важной роли театра в сфере искусства, его роли в освещении социальных проблем, его влиянии на общество. Также в статье говорится о дальнейших планах и перспективах театра, обсуждается его место в культурной жизни и значение его развития в обществе. Музыкально-драматический театр Каракалпакской области своей

*творческой деятельностью вносит большой вклад в культурную среду не только местного населения, но и страны.*

**Ключевые слова:** театр, музыка, танец, актер, культура, культурное наследие, спектакль, сцена.

**Abstract.** This article is devoted to the role and significance of the musical and dramatic theater of the Kashkadarya region in the development of culture. The article is devoted to the history of the theater, creative activity and repertoire, as well as its contribution to local and national culture. Particular emphasis is placed on the important role of the theater in the field of art, its role in highlighting social problems, its influence on society. The article also talks about the future plans and prospects of the theater, discusses its place in cultural life and the significance of its development in society. The musical and dramatic theater of the Kashkadarya region with its creative activity makes a great contribution to the cultural environment of not only the local population, but also the country.

**Keywords:** theatre, music, dance, actor, culture, cultural heritage, performance, stage.

Inson ma'naviy olamini yuksaltirishda, ong va tafakkurini teranlashtirishda teatr san'atining o'rni beqiyos. Zero, san'at odamlarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi, eng go'zal his-tuyg'ularni in'om etadi. Teatr shunchaki oddiy tomoshaxona emas, balki tarbiya, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat maskanidir.

Teatrda aktyorlar tomonidan ijro etilgan rollar, musiqa, xoreografiya va uskunalar hamda ssenografiya ko'makchi bo'lib, tomoshabinlarga voqealarni chuqur his qilish va tushunish imkonini beradi. Teatrning muhim jihatlaridan biri, bu jonli ijro ekanligidir, ya'ni har bir spektakl uning ijrosiga, aktyorlarining emotsiya va his-tuyg'ulariga qarab o'zgaradi.

O'zbekistondagi teatrlar mamlakat madaniy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Teatrlar orqali milliy va xalqaro adabiyotlar, drama, musiqali asarlar va boshqa san'at turlari tomoshabinlarga taqdim etiladi. Teatr san'ati nafaqat

jamoatni ma'rifat bilan boyitadi, balki mamlakatning madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazishda ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston teatrlaridan Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri o'zining ilk tashkil topgan kunlaridan boshlab, O'zbekistonning madaniy hayotida muhim o'rin egallab kelmoqda. Teatr nafaqat san'atning o'ziga xos shakli, balki jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va estetik rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. U bugungi kunda nafaqat mahalliy aholi, balki mamlakatning boshqa hududlaridan kelgan san'at ishqibozlariga ham xizmat qilmoqda. Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri o'zining ijodiy faoliyati va milliy madaniyatni targ'ib qilishdagi ahamiyati bilan tanilgan.

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri o'z tarixini XX asrning 50-yillariga borib boshlagan. Teatrning tashkil etilishi mahalliy madaniyatni rivojlantirish va xalqni san'atga jalb qilishda muhim bosqich bo'ldi. U o'zining ilk spektakllaridanoq, xalq bilan yaqindan bog'lagan, jamiyatning ijtimoiy muammolarini yoritgan asarlar bilan ajralib turdi. Teatrning rivojlanish yo'lida milliy va xalqaro san'at an'analari hamda zamonaviy yozuvchilarning asarlari ustida ish olib borildi. Teatrning tashkil topishida mashhur musiqachi va ustoz, Qarshi shahrida yashab ijod etgan Abdulla Qodirov – Tanburiyning hissasi ulkan. Uning tashabbusi bilan 1924-yildan 1930-yillar boshiga qadar Qarshi va Shahrisabz yoshlari havaskorlik to'garagi negizida tashkil etildi. Keyinchalik Qarshi shahridagi Navoiy nomli maktab huzuridagi Bahrom Kamolov rahbarligidagi havaskorlik to'garagi dastlab o'z faoliyatini musiqali dasturlar bilan boshlagan bo'lsa, keyinchalik ayrim sahna parchalarini ko'rsatishga o'tgan. Qashqadaryo viloyati Mulla To'ychi Toshmuhammedov nomidagi musiqali drama teatri Qarshi-Shahrisabz havaskorlik jamoalari asosida Qarshi tuman maorif mudiri A.Shoibzoda va A.Qodirov tashabbusi bilan 1932-yil 2-avgustda tashkil topdi. Ustoz san'atkorlarning xotirlashicha, dastlab teatrda ilk bor "Halima" spektakli sahnalashtirilgan bo'lib, unda Halima rolini iqtidorli aktrisa Zaynab Sadriyeva ijro etgan. Teatr 1936-yil davlat teatri deb atala boshlandi. Shu yillarda M.Ermatov bosh rejissyor, S.Vohidov rejisor-pedagog bo'lib ishlay boshladi.

1943-yilda O‘zbekiston xalq xofizi Mulla To‘ychi Toshmuhammedov vafotidan keyin nomini abadiylashtirish maqsadida teatrga uning nomi berildi.

Respublikamiz musiqali teatr san’atining rivojlanishida Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrining o‘rni beqiyos. Mashhur san’at ustalari O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san’at arboblari Raimjon Komiljonov, Sadriddin Salimov, O‘zbekiston xalq artistlari Farog‘at Rahmatova, Ikroma Boltayeva, Sharif Kobilov, Sur’at Po‘latov, Muhtarama Nosirova, Omon Beganiyev, Husan Amirqulov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Bahrom Kamolov, Jamil Ashurov, Majit Mamatov, Hayit Mustafaqulov, Hamida Ibragimova, Nazira Vohidova, Lola Xoliqova, Yoqub Rajabov, Aliqul Tulayev, Muhiddin Majidov, Tojiddin Murodov Haqberdi Amirqulov, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Gulchehra Ahmedova, ustozi san’atkorlar Zaynab Samiyeva, Ashirali Xoliqov, Tolib Jalilov, Hazratqul Amirqulov, Baxtiyor Elmurodov, Bahodir Mustafoev, Salohiddin A’zamov, Elmurod Rasulov, Halima Isroilova, Mamatkul Jalilov, Xol Rajabov, Fayzullo Ochilov, Mustafo Madaliyev, Turdi Jumayev, Toshpo‘lat Ahmedov, Aziza Bobomurodova kabi yetuk san’atkorlar teatrning gullab-yashnashi va barkamol ijod maskani bo‘lishi uchun munosib hissa qo‘shgan marhum ustozi san’atkorlardir.

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrining repertuari juda boy va turli janrlarni qamrab oladi. Teatrda dramalar, komediylar, musiqali spektakllar va tarixiy dramalar, zamonaviy asarlar guruhi joriy qilingan. Repertuarda milliy va xorijiy adabiyot namunalari bilan birga, o‘zbek xalqining urf-odatlari, tarixiy voqealarini yoritgan spektakllar ham bor. Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri mahalliy madaniy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Teatrning repertuari, targ‘iboti va ijodiy faoliyati hududdagi madaniy muhitni yanada boyitdi. Teatrda spektakllarda ko‘pincha ijtimoiy va madaniy muammolarga, jamiyatdagi muhim masalalarga e’tibor qaratiladi. Musiqali dramalarda umuminsoniy va milliy an’analarni birlashtirish, zamonaviy va qadim urf-odatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash teatrga yangi avlod tomoshabinlarini jalb qilishga imkon beradi. Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri so‘nggi yillar davomida nafaqt

respublikamiz, balki jahon sahnalariga ham ijodiy ishlari bilan chiqib borib, katta yutuqlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Birgina so‘nggi uch yilda erishilgan yutuqlar salmog‘i ham e’tirofga loyiq. Jumladan, teatr jamoasi 2019-yilning 25-iyul 2-avgust kunlari Rossianing Samara viloyatida o‘tkazilgan “Rus. Epoxi obedineniya” festivalida ishtirok etdi. Shuningdek, 11-15 sentabr kunlari Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro festivalda X.Xursandovning “Bobomning orzusi” spektakli namoyish etildi. Ushbu festivalda jamoa “Eng yaxshi spektakl libosi” nominatsiyasi bilan taqdirlandi. Teatr direktori O‘.Maxmatqulovga festivalning “Teatr rivojiga qo‘shayotgan munosib hissasi uchun” maxsus diplomi topshirildi.

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri hududning madaniy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat san’at sohasida, balki mahalliy xalqning ijtimoiy va madaniy hayotida ham muhim rol o‘ynaydi. Teatr, bиринчи navbatda, milliy va umumbashariy madaniyatlarni birlashtiruvchi va ularni keng auditoriyaga etkazuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur teatr sahnasida namoyish etiladigan spektakllar, musiqali drama asarlari va ularning sahnaviy talqinlari yoshlar va aholini ma’naviy va estetik jihatdan tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri hududdagi madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda, shuningdek, milliy an’analar, san’atning yangi shakllarini kiritish va zamonaviy estetik talablar bilan uyg‘unlashtirishga intilmoqda.

Teatrning yosh ijodkorlar va aktyorlarni tarbiyalashdagi roli ham katta. U yerda yangi talentlar kashf etilib, san’atning rivojlanishiga hissasini qo‘shyapti. Shu bilan birga, teatrlar orqali mahalliy iqtisodiyot ham jonlanadi, chunki u turli madaniy tadbirlar, festivallar, konsertlar va boshqa ommaviy tadbirlar uchun platforma yaratadi. Teatrda ijod qilayotgan aktyorlar va musiqachilar, ularning ijodi, viloyatning madaniy rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Teatrning madaniy rivojlanishdagi ahamiyati bir necha jihatdan ko‘rinadi:

1. Milliy va umuminsoniy madaniyatlarni birlashtirish: Teatr viloyatning madaniy merosini, etnik qadriyatlarini saqlash bilan birga, milliy va xalqaro san’at shakllarini birlashtirish orqali keng auditoriyani qamrab oladi. Bu o‘z navbatida,

xalqaro madaniyat bilan tanishish va uning asosida yangi ijodiy yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

2. Yoshlarni tarbiyalash: Teatr yosh ijodkorlarni tarbiyalashda, ularning fikrlash, estetik hissiyotini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Yoshlar uchun ma'naviy va madaniy qadriyatlarni targ'ib qilishda, ular uchun turli spektakllar orqali insoniy tuyg'ularni va ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish imkoniyatlari yaratadi.

3. Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish: Qashqadaryo musiqali drama teatri viloyatning madaniy merosini saqlash, milliy an'analarni rivojlantirishda ham katta rol o'ynaydi. Teatr sahnasida ko'rsatiladigan asarlar nafaqat zamonaviy san'atni, balki tarixiy an'analarini ham aks ettiradi.

4. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish: Teatr orqali turli madaniy tadbirlar, festivallar, konsertlar va boshqa ommaviy tadbirlar tashkil etiladi, bu esa mahalliy iqtisodiyotning jonlanishiga yordam beradi. Teatrning faoliyati, san'atga qiziqqan aholining ehtiyojlarini qondirib, turizmni rivojlantirishga ham hissa qo'shadi.

5. Ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish: Teatrda ishlaydigan aktyorlar, musiqachilar va rejissyorlar o'z ikodiy faoliyatları orqali viloyat madaniyatiga o'z hissalarini qo'shadilar. Ularning ijodiy ishlari nafaqat milliy san'atni rivojlantirishga, balki yangi san'atchilarni kashf etishga yordam beradi.

Teatrning ijodiy faoliyatini kengaytirish va ularning yangi loyihalarga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish orqali, u o'zining madaniy va ijodiy imkoniyatlarini xalqaro maydonda namoyon qiladi.

Shuningdek, teatr o'zining innovatsion yondashuvlari va zamonaviy texnologiyalari bilan ham tanilgan. Teatrda spektakllarni yangi formatda, zamonaviy texnik imkoniyatlar bilan birlashtirib, tomoshabinlarga yanada boyroq va estetik jihatdan ta'sirchan asarlar taqdim etishga intilmoqda.

Teatrning ahamiyati, ayniqsa, mahalliy aholining madaniy ehtiyojlarini qondirishda, san'at va madaniyatni keng targ'ib qilishda o'z aksini topadi. Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri, shubhasiz, viloyatning madaniy va ijtimoiy rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat san'atni

rivojlantirish, balki mahalliy jamoaning ma’naviy va estetik qadriyatlarini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azimov B. O‘zbek teatr san’ati: Tarix va rivojlanish.
2. Jabbarov A. O‘zbek musiqasi tarixi.
3. Tursunboyev S. O‘zbek teatri tarixi.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild.
5. Abdullayeva M. Madrimov Q. Dramatik teatr rejissyorligi. – Toshkent: Fan ziyozi, 2022. – 138 b.
6. Dadamirzayev O. R. Rejissura – teatr san’atining yetakchi va hal qiluvchi komponentidir //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 5. – 550-553 b.